# VATAN TARAQQIYOTIGA MENING HISSAM




VATAN TARAQQIYOTIGA MENING HISSAM
Oʻzbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi huzuridagi Roʻzi Choriyev nomidagi Surxondaryo ixtisoslashtirilgan san’at maktab internatida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markzai Termiz shahar boʻlinmasi va hamkor tashkilotlar tomonidan 15 yoshdan 30 yoshgacha boʻlgan iqtidorli yoshlar oʻrtasida “Vatan taraqqiyotiga mening hissam!” respublika koʻrik-tanlovining Termiz shahar bosqichi oʻtkazildi.
Tanlov davomida ishtirokchilar uch:
“Tasviriy va amaliy san’at”
“Adabiyot va publisistika”
“Maqom va milliy estrada” yoʻnalishda bellashdi.
Hakamlar hay’ati har bir ishtirokchining ijodiy ishlarini diqqat bilan oʻrganib, eng munosiblarini saralashdi.
Tadbir yakunida uchta yoʻnalishdan faxrli 1, 2, va 3-oʻrinni egallagan yoshlarga tashkilotchilar tomonidan qimmatbaho esdalik sovgʻalari hamda faxriy yorliqlar

topshirildi.

Tanlovning “Tasviriy va amaliy san’at” yo‘nalishda I - o‘rin Choriyev Sunnatillo, “Adabiyot va publisistika” yo‘nalishida I - o‘rin Saparova Zebiniso, “Maqom va milliy estrada” yo‘nalishida I - o‘rin Ergashev Suyunbeklar munosib deb topildi hamda Viloyat bosqichida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritishdi.






















